

# O'zDSMI jamoasining Toshkentdagi INHA universitetiga tashrifi

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti prorektorlari, dekanlari, bo'lim boshliqlari institut rektori Ibrohim Yo'ldosheving topshirig'iga ko'ra, poytaxtimizdagi INHA universitetiga tashrif buyurdi.


Maqsad– bu yerda o‘quv jarayonlariga zamonaviy axborot-kommunikatsiya tizimlarini joriy etishdagi tajribalar bilan o‘rtoqlashish, ish jarayonlarini avtomatlashtirish, integrallashgan axborot tizimlarini, ma’lumotlar uzatish va almashishning yagona tarmoqlarini joriy etish, ulardan foydalanishdagi jarayonlar bilan yaqindan tanishish. Dastlab O‘zDSMI vakillariga mutaxassislar tomonidan INHA universitetidagi xalqaro kredit tizimiga asoslangan o‘quv jarayonlari, uning o‘ziga xos jihatlari, talabalarga fanlarni o‘zlashtirishdagi faolligi uchun beriladigan imtiyozlar,

uning afzalliklari borasida ma'lumotlar taqdim qilindi.

Shundan keyin inkubatsion va akseleratsion markaz haqida ko'rgazmali chiqishlar orqali tushunchalar berildi. Bu yerda talabalarning yangi g'oya, innovatsiyalari, startap loyihalari amalga oshiriladi. Inkubatsion loyihalar asosan IT ga yo'naltirilgan.

Markazda yiliga 15 ga yaqin loyihani amalga oshirish, 50 ga yaqin rezidentni ishga joylashtirishni maqsad qilingan. Shu yerning o'zida universitetni raqamlashtirish, mobil ilova, universitetning menejment tizimi borasida ko'rgazmali taqdimotlar o'tkazildi.

O'zDSMI vakilining jurnal, vedomostning qog'oz varianti borasidagi savoliga INHA universiteti mutaxassisi tomonidan bu yo'nalishdagi ishlarning barchasi elektron shaklda olib borilishi va ularning barchasi elektron bazaga kiritilgan bo'lib, o'quv jarayonlari Koreyadan boshqarilishini, uning afzalliklari haqida aytib o'tildi.



Jamoatchilik bilan aloqalar bo'limi vakili tomonidan keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, bugungi kunda ushbu bo'limda 5 kishi faoliyat olib boradi. Ijtimoiy tarmoqlar, telegram kanalga joylashtirilgan materiallar bir-birini qaytaradi.



Materiallar 3 tilda bo'lib, asosiy shtatdagi xodimlardan tashqari yana tarjimonlar shartnoma asosida jalb qilinadi. Shundan keyin O'zbekiston davlat san'at va madaniyat

instituti vakillari talabalar uchun dars jarayonlari olib boriladigan, zamonaviy monoblok kompyuterlar bilan jihozlangan kompyuter laboratoriyasi, so'nggi texnologiyalar asosida faoliyat olib borayotgan Axborot- resurs markazi, ma'ruzalar zali, telestudiya, nazariya va amaliyot uyg'unligi ta'minlangan fizika laboratoriyasi faoliyati bilan tanishdilar. Nazariya va amaliyotni mutanosib olib borilishi o'z samarasini berib, universitet talabalarining ish bilan ta'minlanishi 100 foizni tashkil etmoqda.



Aniqrog'i, talabalar amaliyotni o'tash jarayonida hali o'qiyotgan paytdayoq ish beruvchilar tomonidan korxonalariga ishga taklif qilinadi. Qayerda faoliyat olib borishni esa talaba tanlaydi.

**Matbuot kotibi**